

## YUSUF SARYOMIY DEVONINING MATN TUZILISHI

**Maxsumov Maqsud Maxmut o'g'li**

"Xoja Buxoriy" nomidagi

o'rta maxsus islom bilim yurti o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Yusuf Saryomiy qalamiga mansub devonning tekstologik tahlili berilgan, devon tarkibidagi g'azallarning to'g'ri o'qilishi va undagi grafik xususiyatlari yoritilgan. Matnda tarixi, badiiyatiga to'xtalib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Yusuf Saryomiy, devon, Saryomiy g'azallari, Grafik xususiyat, tekstologik tahlil, matn xususiyati.

Mustaqillik davrida yaratilgan tadqiqotlarda sifat o'zgarishlari yuz berib, nazardan chetda qolgan, taqiqlangan, qoralangan asarlarni xolisona baholashga, ularni asl manbalari bilan qiyosiy o'rganishga bo'lgan qiziqish ortmoqda. Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ma'naviy-madaniy merosni yaxlit holda o'rganish va olib tashlangan "parchalarni" tiklashning davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi xalqimizning asrlar davomida yaratgan boy ma'naviy merosiga, uning jahon xalqlari madaniyati va adabiy-badiiy tafakkuri taraqqiyotiga qo'shgan hissasini to'g'ri baholash imkonini berdi.

Adabiyotimiz tarixida o'zidan boy ijodiy meros qoldirgan ijodkorlardan biri Yusuf Saryomiydir. Saryomiy g'azallarini to'g'ri o'qishda o'zining grafik xususiyatlari alohida ahamiyatga ega.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek asar hamd bilan boshlangan. Asarning ilk so'zlaridayoq aniqlik bilan harakat qilinganligini ko'rishimiz mumkin.

Yusuf Saryomiy g'azallarida "a", "i", "u" qisqa unlilarni hamda cho'ziq unlilarni ifodalashga xizmat qiladigan, ma'lum bir vazifalarni bajaradigan "alif", "vov", "yo" harflari devon matnida quyidagicha ko'rinishlarda kelgan: "u" unli turli shaklda ifodalangan.

Birinchi:

خوبلارنى يوزىنى كورمك اوچون

بوليده انتظارمن يارب

Xo'blarni yüzini körmäk učun,

Yo'lida intizärman yārab.

Yuqorida keltirilgan baytga nazar soladigan bo'lsak, "u" unlisini "alif" va "vov" او harfiy birikmalari bilan berilganini ko'rishimiz mumkin.

Yana bir misol:

قالغاي باريسي هرنې يغىب سەن جفا چىكوب

بو بوفاده هرنه اирор بیوفا اونوت

*Qalğay barışi har ne yiğib san jafā čeküb,*

*Bu bevafāda har ne erür bevafā ünüt.*

Ikkinci holatda "u" tovushini alifning o'zi ham bajaradi:

پیر شرمنде من غفور رحیم

قریب أمیدوارمن يارب

*Pir şarmanda man ġufuri Rahim,*

*Qarayib umidvärman yārab.*

Bu baytda umidvärman so'zi arab xatida "alif"ning o'zi bilan yozilgan va uni "a" tovushi bilan yanglishtirib o'qimaslik uchun "alif" ustiga damma belgisi qo'yib ketilgan.

Devondagi g'azallarda "u" tovushi "ayn" harfi bilan ham ifodalangan.

نقد عمروم خطاط بیلان کیچتى

جزم ایتوب با شمارمن يارب

*Naqd umrum xatā bilän kečti,*

*Jazm äytüb bā šomārman yārab.*

Quyidagi baytda esa "u" unlisi qisqa harakat bilan belgilangan, yoki faqat "vov" harfi "u" tovushini ifodalab kelgan. Birinchi usulda "u" tovushi yozuvda o'z aksini topmaydi, ammo talaffuzda mavjud bo'ladi. Ikkinci usulda esa, faqat "vov" harfi "u" tovushini beradi:

راحت قایرده بولسە بو گلفت سرای دھر

باڑ يوقى برابر رنج و عنا اونوت

*Rāhat qayerda bo'lsa bu kulfat sarāyi dahr*

*Bar-u yoqى barābar ranj va anā ünüt.*

Shuningdek, "i" unlisi ham xuddi "u" unlisi singari uch xil variantda kelgan. Birinchi ko'rinishi:

مخلوق سن کە حالىقىنكى اىستا كىل مۇدام

سن بىnde لىك نى بىلغىل غېر خدا اونوت

*Maxluq senki hālīqīnni istägil mudām*

*San bändälikni bilgiň ğayrii xudā ünüt.*

Keltirilgan baytning ikkinchi misrasidagi "i" unlisi shaklida berilgan.

Ikkinci korinishi:

قنداغ توتاي پنهان انى عشقىن كوزوم نى ياشىدىن

داغى دلىمە لالە دىك باشدىن اياغىم قان توتوب

*Qandāğ tutay pinhān anı işqin közümni yaşıdın*

*Dāğıi dilimda läladek başdün ayağım qān tütüb.*

Misollardan ko'riniib turibdiki, "i" unlisi ي harfi bilan, ayni paytda, uning oldidagi harfning ostiga kasra harakatini qo'yish orqali ifodalangan.

Uchinchi variantiga misol:

يوسف وصالين باده سى فكرى منى سركرم ايتار  
اي كاشى آلسه نقد خوش بى يول قدح جانان توتوب

*Yusuf , visālīn bādası fikri mani sargarm etär,  
Ey kāši'alsa naqd xuš bir yo'l qadah jānān tütüb.*

Keltirilgan baytning birinchi misrasidagi belgilangan so'zlarda "i" unlisi kasra bilan ifodalangan.

Devon matnida "a" unlisining berilishi quyidagicha:

Ushbu unli so'z boshida kelganida, albatta, alif harfi orqali ifodalanadi:

هجرىنگىدە منى زار و خراب اىلامە اي دوست

بغريم نى فراقينىكە كباب اىلامە اي دوست

*Hajrında mani zār-u xarāb äylämä ey do'st,*

*Bağrımnı firāqında kabāb äylämä ey do'st.*

Keltirilgan baytning so'nggida kelgan اىلامە so'zi bunga misol bo'la oladi.

Ayrim o'rirlarda "alif" so'z o'rtasida va oxirida ham "a" tovushini ifodalab kelgan. Misol uchun:

خم بولدى قىيم سورماكا يوز خاك دردىنىڭ كا

كىلدىم بوكولوب مايىس باب اىلامە اي دوست

*Xam bo'ldı qadıim sörmäkkä yüz xāk dardıňga*

*Keldim bükülüb mayus bāb äylämä ey do'st.*

Shuningdek, fathaning o'zi bilan ham ifodalangan.

عشاق لارينىڭ قتايغە مىنكىاندە تكاور

كوز حلقە سيدىن اوزكار كاب اىلامە اي دوست

*Uşşāqlarıñ qatlığa minanda takāvar,*

*Köz halqasıdın özgä rukkāb äylämä, ey do'st.*

Ushbu misralardagi حلقە قتلیغە kabi so'zlardagi "a" unlilari shu tarzda ifodalangan.

Arab tilida uchta qisqa "a", "i", "u" unlilari va ularning cho'ziqroq talaffuz etilishin taminlaydigan "alif", "vov", "yo" harflari mavjudligi ma'lum. Yuqorida ham aynan shu uchta unlili ko'rib chiqdik. Biroq o'zbek tilida yoki umuman turkiy tillarda unlilar uchta emas, balki undan ortiqligi ma'lum. Asar yozuvining arab alifbosida ekanligi, ikki tildagi unlilar soni esa bir xil emasligi turkiy tilni arab alifbosida berishda unli yoki undoshlarning o'zaro birlarining o'rnida vazifadosh sifatida berishni taqozo etgan va bu o'z navbatida turli ko'rinishlarni yuzaga keltirgan. Masalan, yuqorida keltirilgan uchta unlining ko'rinishlari har doim ham mazkur unlilarni ifodalamaydi. Chunki arab alifbosida "e", "o", "o" (tor yoki kengligi kabilar hisobga olinmaganda ham) harflari yo'q. Asarda esa mazkur unlilarni ham yuqoridagi ko'rinishlarda berilgani va ularning boshqa holatlarini quyida ko'rib chiqamiz.

Demak, “alif”, “vov”, “yo” harflari, shuningdek, fatha, kasra, damma harakatlari va ularning birikuvlari faqatgina qisqa unlilar yoki cho’ziq unlilarni ifodalab kelmagan. Jumladan, alif harfi arab tilidan kirib kelgan so’zlarni ifodalashda shakliy prinsip asosida qo’llanilgan. Masalan:

عشاق لارинк قاتليغه مينканнде تкауор

کوز حلقه سيدин اوزكارкаб ايلаме ай досст

*Uşşāqlarıň qatlığa miňanda takāvar,*

*Köz halqasıdının özgä rukkāb äylämä, ey do'st.*

Yuqorida keltirilgan baytdagi عشاق so’zi aynan arab tilidagidek yozilgan va undagi aliflarning ikkinchisi o’zidan oldingi fathaning cho’ziqroq talaffuz qilinishiga sababchi bo’lib kelgan.

Shuningdek, “alif” bilan “yo” harflari birikma shaklida kelganda “e”, “i” tovushlarini ifodalash uchun qo’llanilgan. Ammo ayrim o’rinlarda bu ikki tovush ayri halda talaffuz etiladi. Masalan:

ترک ننك عار ايلاپ تاشлагиел باشдин ھوا

جمل دин ناموس قىل ناتوانىيغىنдиڭىن عار توت

*Tarki naň ār äyläb tašlağıl başdîn havā*

*Jamaldîn nâmus qıl nâtavânlığındîn ār tüt.*

Bu baytda “alif” va “yoy” tovushlari “a” va “y” deb oqiladi.

Ammo quyidagi baytda bu birikma “i” tovushini bildirib keladi:

سروناز اولدى سەھى قامت كمال انفعى

كردش ايام ايله باد خزان دين بولدى يا

*Sarvināz oldī sahiy qāmati kamāl infaāl*

*Gardeše ayyām ilä bādi xazāndîn bo'ldī yā.*

Keltirilgan baytdagi “ايله” so’zida “i” tovushini,

مال دنيا جمعى مقصد بولسە زاهر ايل ارا

خرقه توز سجّاده قور تسبیح اوکور دستар توت

*Māl dunyā jami maqsad bo'lsa zāhir el arā,*

*Xırqa tuz sajjāda qur tasbih o'gur dastār tüt.*

baytidagi so’zida esa “e” tovushlarini ifodalab kelgan.

Shuningdek, cho’ziq “i” unlisini “I” harfi ham ifodalagan. Masalan:

صىدىنى كىلماكىغە دام سرى

دېدە انتظاردور باعث

*Saydini kelmägiğä dām sari*

*Dida-i intizārdur bā'is.*

Yuqorida keltirilgan baytdagi so’zining birinchi so’zi bunga misoldir.

Xuddi shu singari alif va vov harflari birikma holida kelganida “u” yoki “o” tovushlarini ifodalab kelgan. Masalan:

بولسە بو كىچە هىمم دانا بر اكى اوچ

احباب خوب طلعت تتها بر اکى اوچ

*Bo'Isa bu keča hamdam dānā bir ikki uč*

*Ahbāb xo'b tal'at tanhā bir ikki uč.*

Yuqoridagi baytning birinchi misrasidagi اوچ so'zida "u" tovushini, ifodalab kelgan.

Undoshlar esa quyidagicha berib borilgan:

ك k va g tovushlarini ifodalashga xizmat qilgan. Masalan:

برىسى شەد خنە بىلان اىلاسە خراب

بىكانە نىركىشەلا بىر اکى اوچ

*Barisi şahd xanda bilan aylasa xarāb*

*Begāna nargis şahlā bir ikki uč*

Keltirilgan baytdagi so'zlarida "g" tovushini, اکى so'zida esa, "k" tovushini ifodalagan.

Arab alifbosida "ch" harfi yo'q. Biroq arab alifbosi asosidagi eski o'zbek yozuvida fors ushbu harf bor. Asar matnida ham ushbu tovush چ harfi bilan keltirilgan. Misol uchun:

تتها بو كيچه بىر نىچە يوسف جمال لار

حاليمغە رحم قىلمادى اصلا بىر اکى اوچ

*Tanhā bu keča bir neča Yusuf jamāllar*

*Hālimğä rahm qilmadi aslā bir ikki uč*

Asarda jarangsiz lab undoshi "پ" tovushi پ harfi bilan berilgan.

نشاط بزمىنى قور اوزىكا بىر ترانە كىتور

بساط عشق يازىب پىرده صغانە نى آج

*Nişāt bazmini qur o'zga bir tarāna ketur*

*Bisāti işq yazib parda sağānani ač*

Keltirilgan baytdagi so'zi bunga misol bo'la oladi.

Nusxada "t" tovushi ikki xil shaklda berib borilgan. Turkiy so'zlarda ت harfi bilan, arab tilidan o'zlashgan so'zlarda esa, shakl saqlangan, ya'ni shakliy prinsip bo'yicha yozilgan. Matnni berishda arabiya so'z ط bilan yozilgan bo'lsa, shu harf bilan yozilgan, aksincha, ت bilan yozilgan bo'lsa, ت bilan yozib borilgan. Bu, albatta, so'zlarning, xususan, arab tilidan kirib kelgan so'zlarning manolarini aniqroq tushunishga sabab bo'ladiyan asosiy xususiyatlardan birdir. Masalan:

سمند زلفيغە جان كونكل نى ايلاب اسير

چو تاقلى يوسفى نى بويىنيغە طناب اولىشۇخ

*Samand zulfiğa jān ko'ngulni aylab asir*

*Ču taqtı Yusufini bo''ynığa tanāb ul šox.*

Keltirilgan baytdagi طناب sozi bunga yaqqol misoldir.

Devonda “z” tovushining ifodalanishiga kelsak, ularning ifodalanishi ham yuqoridagi undoshlar singaridir. Arab va fors tillaridan o’zlashgan so’zlar shakli saqlangan holda yozilgan. Turkiy so’zlarda esa ѡ harfi ishlatilgan. Quyidagi misollarga e’tibor qarataylik:

مضطرب اولتۇرمىشام من ناتوان اى لاله رُخ

رحم ايتوب حال دلیم سور بر زمان اى لاله رُخ

Muztarib o’tlurmışam man nātavān ey lāla rux

Rahm etub hāli dilim so'r bir zamān ey lāla rux.

Quyidagi misolda esa so’z asl holida yozilgan:

يلغوز ايماس مجنون اوزى منهم انى مجنونى من

اولسام فضىلت ايندە دور عشقىن انى پنهان توتوب

Yalğuz emas Majnun o'zi manham ani majnuniman

O'lsam faziyat oyindadur işqin ani pīnhān tütüb

Saryomiy devonining grafik xususiyatlari to'g'risida umumiyl qilib shuni aytish mumkinki, asarda arab alifbosidagi yigirma sakkizta harfdan to'la va o'z o'rnida foydalanylган. Shuningdek, qisqa unlilarni ifodalashda harakatlardan, cho'ziq unlilarni ifodalashda esa harakatlar va ularga monand bo'lган vov, alif hamda yo harflaridan foydalanylган.

Turkiy tildagi tovushni ifodalashda arab tilidagi harflar kifoya qilmagan holatda fors-tojik tillaridagi چ پ گ ڭ ڙ ڦ harflaridan, “e”, “o” kabi unlilar masalasida esa “alif”, “vov”, “yo”larini o’zaro birikmasidan yoki shularning o’zidan foydalanylган.

Xulosa qilib aytganda Yusuf Saryomiy ijodini adabiyotga olib kirish hamda matniy jihatdan o'rganish, matn tarixini yaratish bugungi kun matnshunoslari uchun dolbzarb masalalardan biridir.